

Zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanishi

Ismailov Najmiddin Ilxamovich

SamDAQU tayanch doktoranti

***Annotasiya:** Maqolada Zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatishni rivojlanishi, mustaqillik davridan hozirgi kunga qadar bosib o'tilgan yullar tuxtalib o'tilgan. Bundan tashqari aholi turmush darajasining o'sishiga tuxtalib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** Aholi, zamonaviy massivlar, xizmat ko'rsatish, uy-joy. Turmush darajasi.*

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi aholi turmush darajasi, farovonligi va sifatini oshirishga qaratilgan muhim yo'nalishlardan biridir. Olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi-aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlashdir. Mamlakatimiz rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Insoniyatning tarixiy rivojlanishi davomida asosiy va muhim vazifalardan biri aholining turmush darajasini yaxshilash masalasi bo'lib kelgan.

Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan qabul qilingan uslubga muvofiq dunyodagi mamlakatlarining taraqqiyot darajasi reytingi ularning iqtisodiy salohiyati yoki harbiy qudratiga qarab emas, balki, aholi turmush madaniyati va inson resurslarining rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi. Farovon turmush darajasi mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat va ijtimoiy sohaning rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi. O'z navbatida ijtimoiy soha aholiga moddiy va ma'naviy ko'mak beruvchi infratuzilmalardan tashkil topadi. Ta'lim, madaniyat, san'at, sport va sog'liqni saqlash kabi sohalar aholini komil inson qilib tarbiyalash uchun xizmat qilsa, kommunal xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanishi aholining farovon hayot kechirishi va munosib turmush tarzining shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatish tizimining nazariy asoslari puxta ishlab chiqilmas ekan hamda asoslab berilmas ekan hamda uni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish samarasiz, bugungi kunda amaliyot kun tartibiga qo'yilayotgan boshqa muhim muammolarni hal etib bo'lmaydi. Bugungi innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida kommunal xizmat ko'rsatish sohasining nazariy masalalari chuqur va atroflicha o'rganilmagan. Xizmat ko'rsatish tizimi aholining farovon yashashida, iqtisodiyotning yuksalishida muhim ahamiyatga ega ekanligiga qaramasdan, mazkur masalaga etarlicha e'tibor berilmadi. SHu sababli bo'lsa kerak, malakatimizda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida kommunal xizmatlarning kelib chiqishi va evolyusiyasi to'g'risida ilmiy qarashlar shakllanmaganligini ko'rishimiz mumkin. Kommunal xizmat ko'rsatish sohasini evolyusiyasini bilmasdan turib, uning ishtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini asoslab bo'lmaydi.

Xizmat ko'rsatish sohasi uzoq vaqtlar mobaynida inson hayoti va faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib kelgan inson taraqqiyotining barcha bosqichlarida iqtisodiy tizimning bir turidan ikkinchi turiga o'tishda aynan xizmatlar sohasining rivojlanishi asosiy rol o'ynadi. Tovar ishlab chiqarish natural xo'jalikning rivojlanishi, maxsulot turlari va miqdorining o'sishi natijasida paydo bo'ldi¹. Natural xo'jalikning siqib chiqarish va tovar ayirboshlashning rivojlanish jarayoni mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab qicharishning ixtisoslashuvi, xususiy mulkning vujudga kelishi va rivojlanishi asosida sodir bo'lgan². Mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab qicharishning ixtisoslashuvi, xususiy mulkning rivojlanishi hamda xo'jalik a'zolari o'rtasida o'zaro ayirboshlash, ya'ni savdo xizmatlari orqali amalga oshadi. SHuningdek, natural xo'jalik davrida ham uning a'zolari ma'lum bir xizmat turlaridan, jumladan o'zaro axborot almashish, maishiy xizmat, kommunal xizmatlar, o'zlarini tashqi muhitdan himoya qilish kabi xizmatlardan foydalanishgan.

¹Шодмонов Ш.Ш., Алимов Р.Х., Жўраев Т.Т. Иқтисодиёт назарияси. Тошкент, “Молия” нашриёти 2002 йил. 85 бет.

²Шодмонов Ш.Ш., Алимов Р.Х., Жўраев Т.Т. Иқтисодиёт назарияси. Тошкент, “Молия” нашриёти 2002 йил. 89 бет.

Tabiiyki, ular ushbu xizmatlarning mohiyatini, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tushunib etmagan. Lekin, bu turdagi xizmatlar natural xo‘jalik a‘zolarining kundalik ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynadi. Kishilik taraqqiyotining o‘sha davridayoq xizmatlar sohasi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiyotida muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Uzoq tarixiy davr mobaynida xizmat ko‘rsatish sohasi tobora rivojlandi va hozirgi kunda bozor iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi.

Zamonaviy massivlarda xizmat ko‘rsatish sohasi tarixiga nazar solganimizda bu sohada mamlakatimizda uzoq tarixga va cheksiz maanbaga ega bo‘lgan maktab mavjudligining ko‘rishimiz mumkin. Hattoki ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan, O‘rta Osiyoda eng qadimiy hisoblanuvchi (X-asr) tarixiy obida “Samoniylar maqbarasi”ga nazar tashlar ekanmiz, uning noyob san’at asari darajasida yaratilgan arxitektura yodgorligi ekanligi bilan birga unda yog‘ingarchiliklardan himoyalovchi tarnov yo‘li, oqovasuv tizimi va havo aylanishini ta‘minlovchi kommunikatsiyalarning mavjudligini ko‘ramiz. Bu esa o‘sha davrda O‘rta Osiyoda muxandislik tarmoqlari qurilishi sohasida ma‘lum tajriba mavjud ekanligini hamda ushbu tizim orqali kommunal xizmat ko‘rsatish ma‘lum ma‘noda yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin ko‘ramiz.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida zamonaviy massivlarda xizmat ko‘rsatish tizimida tub o‘zgarishlar bo‘ldi. Bu borada olib borilgan ishlar kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini rivojiga katta hissa qo‘shdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikam birinchi Prezidentining 1993 yil. 15 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida kommunal xizmat ko‘rsatishni boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risida” gi Farmoniga muvofiq, viloyatlar va Toshkent shahrida hududiy kommunal xizmat ko‘rsatish xo‘jaligi va undan foydalanish birlashmalari barpo etildi. 1996 yilning boshida Respublika Kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi tizimida 345 ta korxonalar va inshoot xususiylashtirildi, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari negizida 20 ta aksiyadorlik jamiyati barpo etildi. Respublikamizda davlatning uy-joy siyosati O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksida aks ettirilgan bo‘lib, u 1998 yil 24 dekabrda

713-I-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan qabul qilingan va Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 dekabrda 714-II-son Qaroriga muvofiq 1999 yil 1 apreldan amalga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 11 ta bo‘lim va 141 ta moddadan iborat. SHuningdek, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish uchun ko‘plab qarorlar, farmonlar hamda tizimni modernizatsiya qilish maqsadida moliyalashtirish siyosati olib borildi. Ammo, ushbu islohotlar o‘z samarasini bermadi. CHunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarini markazlashtirilgan bo‘lib asosan davlat mulkiga asoslanganligi hamda monopol sohaga aylanganligi sababli tizimda qarzdorlik holatlari, xizmatlar sifatini yomonlashishi kabi muammolar paydo bo‘ldi. Muammoni echimi sifatida 2017 yil 18 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev tomonidan “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Zamonaviy massivlarda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida 2019 yil 6 avgustda “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”³gi qonun qabul qilingan. Bundan tashqari mamlakatimizda zamonaviy massivlarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish maqsadida ko‘plab dasturlar qabul qilinib islohotlar olib borilmoqda.

Zamonaviy massivlarda xizmat ko‘rsatish tizimini nazariy asoslarini tahlil qilish ekanmiz sanoat iqtisodiyoti nazariyasi, mintaqaviy iqtisodiyot va institutsional iqtisodiy nazariyalarga asoslanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ma’lum hududda yashovchi zamonaviy massivlarda xizmat ko‘rsatishni kengaytirish tizimida⁴ ular o‘rtasida sifat jihatidan yangi munosabatlar va o‘zaro bog‘liqliklar mavjud bo‘lib, korxonalar va tashkilotlarning boshqaruv organlari va iste’molchilar munosabatlarida aks etadi. Ushbu munosabatlarning mohiyati aholini sifatli xizmatlar bilan qamrab olish maqsadida zamonaviy massivlarda xizmat ko‘rsatish tizimini yangi texnologiya bilan muntazam qamrab olish, uy-

³ Ўзбекистон Республикасининг “Кўп квартирали уйларни бошқариш тўғрисида”ги Қонуни. 2019 йил 6 август. www.lex.uz

⁴ “Институционал иктисодий назария” атамаси Ҳамилтон томонидан 1918 йилда илмий айланиш жараёнига киритилди.

joylar va kommunal xo‘jalikni rivojlantirish, uy-joy kommunal xizmatlarning energiya samaradorligini oshirish, mavjud uy-joy qurilishi va kommunal infratuzilmani kompleks yangilash, innovatsion va tejamkor energiya texnologiyalarni joriy qilish hamda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Zamonaviy massivlarda xizmat ko‘rsatish tizimini joriy va uzoq muddatli barqaror rivojlantirishning talablarini inobatga olgan holda, zamonaviy massivlarda xizmat ko‘rsatish sohasining mohiyatini va ularni ishlab chiqarish hamda iste‘mol qilish jarayonlarini o‘rganish uchun ob‘ektiv ehtiyoj paydo bo‘ladi. Iqtisodiyotni islohot qilish uchun nazariy jihatdan rasmiy (qoidalar va qoidalarga rasmiy ravishda tayinlangan) va norasmiy (odatiy an‘anaviy xatti-harakatlar normalari) institutlari o‘rtasida alohida ajratilgan bo‘lib, ular alohida ahamiyatga ega. Ba‘zi qoida va qoidalarning qonuniy bekor qilinishi va radikal ravishda yangilarini joriy etish odamlarning odatiy harakatlarini tezda o‘zgartira olmaydi. Rasmiy va norasmiy qoidalar bilan kelishmovchilik zamonaviy massivlarda xizmat ko‘rsatish bozorining samarasizligi va islohotlarning to‘lovga layoqatsizligining asosiy sababidir. Zamonaviy massivlarda xizmat ko‘rsatish bozorini isloh qilishning samarasizligi, shuningdek, kommunal xizmatlarning ta‘rifi yo‘qligi bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. SHodmonov SH.SH., Alimov R.H., Jo‘raev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent, “Moliya” nashriyoti 2002 yil. 85 bet
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil 6 avgust.
3. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-27- sonli farmoni 28 fevral 2023 yil.

4. Ismailov N.I. Zamonaviy massivlar va ularda aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar. Me'morchilik va qurilish muammolari (ilmiy texnik jurnali) 27.04.2023-yil № mahsus soni